

## **ILMIY-OMMABOP DISKURS VA UNDA LINGVOMADANIY OMILLARNING O‘RNI**

**Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,**  
*Namangan davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*  
Email: [nozimakozakova2@gmail.com](mailto:nozimakozakova2@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ilmiy-ommabop diskursning ilmiy diskursdan farqi va umumiy jihatlari, janrlari haqida so‘z yuritiladi. Ilmiy ommabop diskursning yaratilishida muallif shaxsi, lisoniy ijodkorlik masalalarining ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** diskurs, ilmiy-ommabop diskurs, ilmiy ijodkorlik, ilmiy-ommabop maqola, ilmiy-ommabop ma’ruza, intervyu, konsept, stereotip, mentalitet.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются отличия и общие черты научно-популярного дискурса от научного дискурса, а также его жанры. Раскрывается значение личности автора и лингвистического творчества в создании научно-популярного дискурса.

**Ключевые слова:** дискурс, научно-популярный дискурс, научное творчество, научно-популярная статья, научно-популярная лекция, интервью.

**Annotation.** This article discusses the differences and common features of scientific-popular discourse from scientific discourse, as well as its genres. It reveals the importance of the author’s personality and linguistic creativity in creating scientific-popular discourse.

**Keywords:** discourse, scientific-popular discourse, scientific creativity, scientific-popular article, scientific-popular lecture, interview.

**Kirish.** Tilshunoslikda ilmiy-ommabop diskurs ba’zan alohida diskurs turi sifatida, ba’zan esa ilmiy diskursning ajralmas qismi (subdiskurs) sifatida qaraladi. Mazkur diskurs turi ilmiy bilimlarni ommaviylashtirishni ta’minlaydigan muloqot uslublaridan biri hisoblanadi. Ilmiy-ommabop diskursda asosiy maqsad ilmiy yutuqlarni keng jamoatchilik orasida ommaviylashtirish, ilmga qiziqishni qo‘llab-quvvatlash va adresantni ilmiy muhitga jalb qilishdan iboratdir. Ilmiy-ommabop diskursni ilmiy diskursdan ajratib turuvchi muhim omil bu adresantning xususiyati, ya’ni uning tadqiqot obyekti haqida xabardorlik darajasi hisoblanadi. Ilmiy diskursning adresati ilmiy muhit vakili bo‘lib, u fon ma’lumotlariga ega bo‘ladi va yangi bilimlar olishni kutadi. Ilmiy-ommabop diskursning adresati esa, albatta, ilmiy soha vakili bo‘lishi shart emas, muhokama qilinayotgan mavzuga qiziqish bo‘lsa bo‘lgani. Ilmiy diskurs va ilmiy-ommabop diskursning farqli jihatlari lisoniy vositalarning tanlanishi, mahsulotning ta’sirchanlik darajasi, tilning emotsionallik, ekpressivlik funksiyalaridan qay darajada foydalanilishi bilan ham belgilanadi.

Ilmiy diskursda adresant va adresatning maqomi, darajasi tengligi talab qilinadi. Chunki shunday tor doiradagi mutaxassisliklar, tor ilmiy sohalar, xos ilmiy mavzular borki, ularni tushunish uchun aynan shu sohaga oid tajriba va bilim talab qilinadi. Ilmiy-ommabop diskursni ajratib ko‘rsatish uchun asos sifatida an’anaviy ravishda

professional bo‘lmagan shaxsga yo‘naltirilganligi hisoblanadi, bu esa til birliklarini tanlashga ta’sir qiladi.

Demak, ilmiy-ommabop diskursning muallifi keng auditoriya uchun tushunarsiz bo‘lgan ilmiy tushunchalarni qayta shakllantirish va moslashtirishga majbur bo‘ladi, bu esa ba’zan ilmiy diskurs matnida mavjud bo‘lmagan qo‘shimcha mazmuniy ma’nolar paydo bo‘lishiga olib keladi.

**Muhokama va natijalar.** Ilmiy-ommabop diskurs va uning lisoniy xususiyatlari, baholash faoliyati sifatidagi o‘ziga xosliklari N.V. Danilevskaya ishlarida o‘z tadqiqini topgan. (1. 20–28.) Ilmiy-ommabop diskursda baho kategoriyasining ifodalanishi, bu diskurs turining pragmatik jihatlari O.A.Shutova ishlarida tahlil qilingan. (2. 75-79) Ilmiy va ilmiy ommabop diskursda ilmiy-ijodiy jarayon amalga oshiriladi. Bunda olimning idiosтили masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur masala rus tilshunosligida Y.V.Shevchenko tomonidan monografik planda tadqiq etilgan. (3) O‘zbek tilshunosligida ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik jihatlari M.Hakimov tomonidan tahlil qilingan. (5.98)

Ilmiy-ommabop diskursda ham milliy jihatlari o‘z ifodasini topishi mumkinmi? Ma’naviy va milliy-madaniy qadriyatlar bu diskurs turning shakllanishida qanday ahamiyatga ega? Lingvomadaniy konseptlar, milliy qadriyatlar, lingvokulturemalar, ramzlar ilmiy fikrni ommaboplashtirishda qanday ahamiyatga ega?

Ilmiy-ommabop diskursning muayyan janrlari mavjud. Quyida ulardan ayrimlarida lingvomadaniy omillar ta’siri tahlil qilib o‘tamiz.

**Ilmiy-ommabop maqola.** Ilmiy-ommabop maqola – bu murakkab ilmiy mavzularni keng auditoriya uchun tushunarli va qiziqarli tarzda tushuntirib berishga yo‘naltirilgan matn turi hisoblanadi. Unda ilmiy tadqiqotlar natijalari oddiy va tushunarli shaklda taqdim etiladi, murakkab tushunchalarni tushuntirish uchun oddiy hayotiy misollar va rasmlardan foydalaniladi.

Dunyo miqyosida jamiyatga ilmiy yangilik, kashfiyot va olam tuzilishi, jamiyat, tabiat, ishlab chiqarish va hokazolar haqidagi eng yangi ma’lumotlarni yetkazish bilan shug‘ullanadigan maxsus jurnallar, saytlar, jamiyatlar mavjud. Shulardan biri “National geographic” jurnali bo‘lib, unda tarix, madaniyat, tabiat, geografiya, limning turli sohalariga oid ilmiy-ommabop materiallar berib boriladi. O‘zbekistonda esa “Tafakkur”, “Fan va turmush” jurnallarida ana shunday maqolalar kitobxonlarga taqdim etilgan. Ilmiy-ommabop maqolalarda lingvomadaniy omillar ta’siri ham seziladi. Chunki muayyan jamiyatda ma’lum bir mavzular butun jamiyatni o‘ylantirishi, boshqa jamioyat uchun esa bu ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ilmiy-ommabop maqola matnida xalqona iboralar, o‘xshatishlar, maqollardan foydalanish ommaboplikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, tibbiy psixologiyaga oid “Asab va ruhiyat” asari

so‘zboshisiga “Madadi Sinoga yondosh qalb” deb sarlavha qo‘yilgan. Madadi Sino meditsina atamasining sharqona nomi. Ibn Sino esa butun dunyoda tibbiyot asoschisi sifatida mashhur. Uning “Tib qonunlari” asari xalqimiz orasida salomatlik konsepti ramzi sifatida e‘tirof etiladi. So‘zboshiga xalqimiz ma‘naviy va madaniy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda nom qo‘yilgan. Aynan shu kitobga turli rivoyatlar va hikoyalar ham ilmiy fikrlarni ommaboplashtirish maqsadida kiritilgan.

**Intervyu.** Ilmiy bilimlarni ommaviylashtirish shakllari orasida intervyu, suhbat va dialog alohida o‘rin tutadi, chunki ular o‘quvchilar orasida katta qiziqish uyg‘otadi, ular muloqot subyektlari o‘rtasidagi eng muhim muloqot shakli hisoblanadi. Jamoatchilikka ilmiy bilimlarni intervyu orqali yetkazishni istagan olim o‘z g‘oyalarini ommaga tushunarli shaklda bayon qiladi, didaktik vazifalarni qo‘ymaydi, balki faqatgina yangi ilmiy kashfiyotlar yoki ilmiy muhitdagi voqealar haqida ma‘lumot berishga intiladi, bu esa ushbu janrni ilmiy-ommabop adabiyot asarlariga mansub ekanligini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda mediadiskursda ilmiy-ommabop yo‘nalish ham rivojlanmoqda. Xususan, o‘zbek mediadiskursida bir necha ilmiy-ommabop diskursga yo‘naltirilgan podkastlar turli fan munaxassislari bilan intervyular, suhbatlar tashkil etmoqdalar. Jumladan, “Chaq-chaq” podkastida lingvistika, tarix, arxeologiya, antropologiya, fizika sohalari mutaxassislari bilan qiziqarli suhbatlar tashkil etilgan va ommaga taqdim etilgan.

**Ma‘ruza.** Zamonaviy ilmiy-ommabop diskursning yana bir muhim janri ma‘ruza hisoblanadi. Ushbu ma‘lumot uzatish shakli intervyu singari ritorik diskursogen janr bo‘lib, u haqiqiy muloqotda amalga oshiriladi. Ochiq ma‘ruza ommaviy auditoriyaga qaratilgan nutq asari sifatida qaraladi va ilmiy ma‘lumotni taqdim etishning intellektual va soddalashtirilgan usulining uyg‘unligini aks ettiradi. Xorijiy tillarda va rus tilida ilmiy-ommabop ma‘ruzalar saytlari tashkil qilingan hamda mashhur olimlarning shu janrdagi ma‘ruzalari joylangan.

Ilmiy-ommabop janrdagi materiallarni tayyorlash ilm sohibidan ham o‘z sohasini chuqur bilish, ham bu bilimlarni tushunarli va qiziqarli tarzda ommaga yetkazib berish mahoratini talab qiladi. Bu o‘ziga xos ijodiy jarayon sanaladi.

Zamonaviy tilshunoslik fanining paradigmasining o‘zgarishi, ya‘ni antropotsentrik yo‘nalish va unda insonning o‘zi hukmron rolini mustahkamlash, olimlarning til shaxsining tuzilishini tasvirlash muammosiga alohida e‘tibor berishga olib keldi. Ilmiy ijodkorlik muallifdan o‘ziga xos uslub va izlanish salohiyatiga ega bo‘lishni talab etadi. Olim, ilmiy muloqot subyekti sifatida, lisoniy shaxs sifatida, o‘ziga xos uslubga ega kontent yaratuvchisi hisoblanadi. Lisoniy shaxs bu ma‘lum bir milliy, professional, ijtimoiy guruh vakili sifatida insonning muloqot xulqi orqali jamlangan obrazini ifodalaydi. Ilmiy-ommabop diskurs ham muayyan ijtimoiy muhit mahsuli sifatida muayyan til jamoasining dunyoqarashi, saviyasi, mentalitet va milliy xarakter bilan

bog‘liq xususiyatlarga ham ega boladi. Jumladan, o‘zbek mediasida mavjud “Qurultoy” podkasti misolida bu masalani ko‘rib o‘tamiz. Mazkur podkast o‘z oldiga o‘zbek jamiyati xalqining tarixi, ilm-fani, madaniyatiga oid eng muhim xususiyatlarni tahlil qilishni maqsad qilib qo‘ygan deyishimiz mumkin. Podkastning nomi ham o‘ziga xos. Qurultoy turkiy xalqlar va mo‘g‘ul xalqida qadimdan mavjud bo‘lgan turli harbiy kengashlar va majlislarning umumiy nomini ifodalaydi. Podkastda esa aynan turkiy xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan qadriyatlar, madaniy o‘ziga xosliklar, ijtimoiy fanlarga xos muhim ilmiy muammolar ommabop usulda xalqqa yetkaziladi. Shu sohaning bilimdoni bo‘lgan mutaxassislar suhbatga taklif etiladi va suhbat quriladi. Ilmiy mavzular muhokama qilinsa ham, podkastdagi materiallarda milliylikka intilish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, podkastdagi mavzulardan bir nechtasini keltirishimiz mumkin:

“Xunlar davlati: qudratli dasht imperiyasiga nazar”, “Xalq diplomatiyasi bosib o‘tgan yo‘l/ Elchilar va millatlar”, Elbek: o‘zbek millati, Turkiston va ijoddagi jasorat”, “Maqom olamiga sayohat. Maqom falsafasi nimadan iborat?”, “O‘zbek to‘ylari: kecha va bugun”, “O‘zbek millatining qadriyatlari”, “Islom olamida vaqf instituti, Xivada vaqflar faoliyati”, “Markaziy Osiyoda islomgacha bo‘lgan madaniyat: shaharsozlik, san‘at va diplomatiya”, “Turkistonda tib madaniyati, soxta tabiblar va zamonaviy meditsina”, “Islom davri adabiyotida turk mifologiyasi”, “Turk mifologiyasi - ajdodlarimiz dunyoni qanday tasavvur qilishgan”, “O‘zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanishi” kabi. Mazkur mavzularning o‘ziyoq keltiriladigan materiallar bevosita o‘zbek va turkiy xalqlar madaniyatiga aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Podkastlar davomida tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik, islomshunoslik, filologiya, sotsiologiyaga oid dolzarb mavzular, terminlar va ular zamirida yotgan ilmiy mazmun xalqona izohlar, sharhlar bilan, o‘z sohasining yetuk bilimdonlari bilan suhbat asnosida tomoshabinlarga yetkazib beriladi. Podkastlar milliy madaniyatimiz, milliy tariximizga oid bo‘lgani uchun ham ularda tesha tegmagan iboralar, maqollar, rivoyat va afsonalar, tarixiy obyektlar va shaxslar haqidagi ma‘lumotlar keltiriladi. Podkastda izohlanadigan tarixiy hodisalar, onomastik birliklar: toponimlar, antroponimlar, mifonimlar va hokazolarning o‘zi lingvokulturema maqomiga ega.

**Xulosa** sifatida shuni aytish lozimki, ilmiy-ommabop diskursda tushunarlilik, aniqlik kategoriyalari muhim ahamiyatga ega. Mazkur kategoriyalarni ta‘minlash uchun izohlardan illyustratsiyalardan foydalanish mumkin. Ilmiy-ommabop diskurs orqali fan yutuqlari keng ommaga yetkaziladi. Ilmiy-ommabop diskursda adresantning muvaffaqiyatga erishuvi yorilayotgan mavzuni chuqur bilish va tushunarli, qiziqarli holda yetkazib berish bilan bog‘liq. Mazkur diskurs turning shakllanishida lingvomadaniy omillar ham ahamiyatli bo‘lib, auditoriyaning, kitobxonning madaniy va

ma’naviy qadriyatlaridagi milliy o‘ziga xoslik ham inobatga olinsa, yaratilgan matn yoki kontent muvaffaqiyati ta’minlanishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Данилевская Н. В. Научный текст как динамика оценочных действий // Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. – Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 2009. – Вып. 2. – С. 20–28.
2. **Шутова О.А.** Категория оценки в научно-популярном дискурсе // «Филология. Социальные коммуникации» Том 26 (65). 2013. – № 1 – С. 75-79
3. Шевченко Ю. В. Идиостиль ученого в научном и научно-популярном дискурсе: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Нижневартовск, 2023.
4. Воронцова Т. Научно-популярный дискурс в современных российских СМИ (проблемы жанра и стиля) // Вестник Челябинского государственного университета. 2014. № 6. – С. 39.
5. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол.фан.номз...дис. – Тошкент, 1993.
6. [https://iphras.ru/lektorii\\_pg.htm](https://iphras.ru/lektorii_pg.htm)

